

MILLIY REALIYALARNI TARJIMADA AKS ETTIRISH VA ULARNI TARJIMA QILISH USULLARI (O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASI ASOSIDA)

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Xudaykulova Gulnoza Abdivohid qizi

Yigitaliyeva Qurbonoy Rajabali qizi

Ziyayeva Feruza Choriyorovna

Anotatsiya: Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning «Dunyoning Ishlari» asarida uchraydigan madaniy realiyalar tahlil etiladi. Realiya madaniyat va urf-odatlarini aks ettiruvchi tushunchalar bo'lib, ularni tarjima qilish qiyin. Asarda O'zbek xalqining urf-odatlari, turmush tarzi va kundalik hayoti realiyalar orqali yetkaziladi. Maqolada asardagi realiyalar tahlil qilinib, ularning ma'nosi va qaysi sahifada uchragani haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. Maqolada tarjima jarayonida uchraydigan realiyalarning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek badiiy asar tarjimasida realiyalarning ahamiyati, xususiyatlari va misollar yoritib berilgan. Hamda, tarjima usullari va strategiyalarining ahamiyati haqida fikrlar bildiriladi.

Milliy realiyalar – bu bir xalqning madaniyati, urf-odatlari va an'analarini aks ettiruvchi unsurlardir. Tarjimada milliy realiyalarni to'g'ri ifodalash, tarjima jarayonining muhim qismidir, chunki bu madaniyatlararo aloqalarni rivojlantiradi va o'zaro tushunishni yaxshilaydi. Tarjimon milliy realiyalarni o'zlashtirish va ularni boshqa madaniyatga moslashtirish jarayonida turli muammolarga duch keladi. Ushbu realiyalar til, urf-odatlar, maxsus atamalar va madaniy kontekstlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tarjimonlar ushbu elementlarni o'zlarining tarjimalarida qanday aks ettirishlari kerakligi haqida o'ylashlari zarur.

Kalit so'zlar: milliy va madaniy so'zlar, realiya, transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash, analogiya, tasviriy usul.

METHODS OF REFLECTING NATIONAL REALITIES IN TRANSLATION AND THEIR TRANSLATION

Annotation: This article discusses the importance of the realities encountered in the translation process. Also, the importance, characteristics and examples of realism are highlighted in the translation of the artistic work. It also discusses the importance of translation methods and strategies.

National realities are elements that reflect the culture, customs and traditions of a nation. Correct representation of national realities in translation is an important part of the translation process, as it develops intercultural relations and improves mutual understanding. The translator faces various problems in the process of mastering

national realities and adapting them to another culture. These realities may be related to language, customs, special terms and cultural contexts. Translators need to think about how to reflect these elements in their translation.

Keywords: *national and cultural words, reality, transliteration, transcription, copying, analogy, descriptive*

Realia so'zi lotincha "realia" dan olingan bo'lib, u ashyoviy, haqiqiy degan ma'nolarni anglatadi. Lingvistik atamalar lug'atida unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurulishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so'zlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik" deyiladi.

Realia madaniyatga xos moddiy elementlar uchun so'zlar va iboralardir. XX asrning 50-yillariga kelib realiyalar milliy o'ziga xoslikning aniq, sezilarli elementi, kolorit ko'rsatkichlari sifatida ta'riflana boshladi. D.E.Rozental, M.A.Telenkovalar realiyalarni "so'zning nominativ ma'nosi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi, mavjud madaniyat predmetlari" deb ta'riflashgan. L.N.Sobolev fikriga ko'ra, ekvivalentlariga ega bo'lmagan maishiy va o'ziga xos milliy so'zlar va iboralar, shuningdek, boshqa tillarda mavjud bo'lmagan milliy turmush tarziga oid birliklar "realiya" hisoblanadi, negaki ushbu predmet va hodisalar boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lmaydi. A.V.Fedorov "realiya" deganda ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi, faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo'q bo'lgan so'zlarni tushunadi. T.I.Cheremisining fikriga ko'ra, "realiya-so'zlar lokal belgilangan so'zlar hisoblanib, muayyan millatga xos urf-odatlar, maishiy predmetlarni belgilash uchun xizmat qiladi".

G.D.Tomaxin esa quyidagicha ta'riflaydi: "Realiyalar faqat muayyan millat va xalqlarga tegishli bo'lgan moddiy madaniyat predmetlari, tarixiy dalillar, davlat institutlari, milliy va xalq og'zaki ijodiyoti qahramonlari, afsonaviy mavjudotlarni ifodalaydi"

So'z –tilning asosiy birligi bo'lib, predmetlarning nomlarini va ularning xususiyatlarini, hodisalarni, borliqqa munosabatlarini bildirishga xizmat qiladi. Realiani tarjima qilish uchun turli strategiyalar mavjud:ular fonetik transkripsiyadan tortib, umumiy ma'no tarjimasigacha.

Milliy so'zlar tarjimasida asosan quyidagi usullardan foydalaniladi. Transkripsiya va transliteratsiyadan ko'p hollarda atoqli otlar, davlat korxonalari, o'quv yurtlari nomlari kabilarni qayta hosil qilishda foydalaniladi.

- *Transliteratsiya* fransuzcha translitération – "tarjima qilish" ma'nosidagi so'z bo'lib, ma'lum bir til grafikasida bitilgan yodgorlik yoxud qo'lyozmani boshqa

(amaldagi) yozuvga o‘g‘irish, biror yozuv harflarini boshqa bir yozuv harflari bilan ifodalash usulini ifoda etadi.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi – asliyatda qo‘llangan milliy belgiga ega bo‘lgan lisoniy vositalarning tarjima tilida muqobili mavjud bo‘lmaganligidir. Masalan, ruscha “tansevat” so‘zi o‘zining birgina ma‘nosi bilan o‘zbekcha “raqsga tushmoq” birikmasiga mos ekvivalent bo‘la olar edi. Uning boshqa bir ma‘nosi – erkak va ayolning bel-u qo‘l ushlab davrada aylanishi, bu usulda raqsga tushish o‘zbeklarga xos bo‘lmagani tufayli, o‘zbek tilida o‘z ekvivalentiga ega emas.

- *Transkripsiyalash* - ya‘ni nusxa ko‘chirish. Asl so‘z boshqa alifboda yozilsa, bu transliteratsiya deb ataladi. O‘rganilgan tilning talaffuz qoidalariga muvofiq transkripsiya qilish. Misol uchun, O‘zbekiston-Uzbekistan, Henry-Genri.
- *Analogiya* – o‘xshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o‘xshashlik, ya‘ni muqobil tushuncha bilan berish. Masalan, E. Vohidov Gyotening “Faust” asari tarjimasida “yuristlar”ni – “ulamo”, “magistrlar”ni – “fuzalo” deb berishi ham to‘g‘ri emas.
- *Kalkalash usuli* - fransuzcha: nusxa olish, taqlid qilish. Mazkur usul tarjima amaliyotida keng qo‘llanilib, muqobilsiz so‘zning morfemalari yoki muqobilsiz turg‘un so‘z birikmasining leksemalari tarjima tiliga asliga muvofiq holda so‘zma-so‘z o‘g‘iriladi. Masalan, o‘zbek tilidagi bolalar bog‘chasi birikmasi (ruscha detskiy sad).
- *Tasviriy usul* - bunda asliyat tilidagi bir so‘zning o‘rniga tarjimada so‘z birikmasi, frazeologizm yoki butun bir gap qo‘llanilishini mumkin.

Quyida biz realiyalarni boshqa jihatdan o‘rganamiz, bu so‘z birliklari albatta boshqa tillarda aynan o‘ziga mos so‘z bilan ifodalanib, unga ekvivalent sifatida ishlatiladi, lekin ko‘chma holatda u bizning milliy hamda madaniy jihatdan o‘zimizni shu so‘zlar bilan bog‘liq holda anglashimizni bildiradi. Shuningdek, ushbu so‘zlar bizni turmush tarzimiz, odatlarimiz va bizni o‘rab turgan tevarak atrofimizdagi tabiat bilan bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Misol uchun O‘tkir Hoshimovning “*Dunyoning ishlari*” asarida o‘zbek millatiga xos bo‘lgan realiya so‘zlar bor. Ular;

Supa (3-bet) –Hovli o‘rtasiga yoki chetiga ishlangan sahna.

Tillaqosh –(3-bet) Zargarlik buyumi ayollarning bosh kiyimi ustidan peshonaga taqiladigan taqinchoq.

Yetimcha (4-bet) –Ota onasiz qolgan bola.

Yaktak (5- bet) —Yozgi yengil kiyim ,erkaklar ko‘ylagi.

Omocho (9- bet) –Qadimda asosiy yer haydash quroli hisoblangan.

Sandal –(10-bet)Xonaning bir chetiga chuqurcha qazilib ichi maxsus shaklda ishlanadi unga xontaxta oʻrnatilib usti koʻrpa bilan yopiladi ,koʻmir yoki saksovul choʻgʻI bilan isitiladi.

Beshik (14 - bet) –Chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun moʻljallagan yoʻrgʻa oyoqli maxsus moslama.Asosan tut,tol va boshqa yogʻochdan yasaladi.

Sumalak (17- bet) –Asosan bugʻdoyning yosh navdalari ,un.yogʻlardan tayyorlanadigan oʻzbek milliy taomi.Bir sutka davomida pishiriladi.

Shinni (17 - bet) – Uzum sharbatidan tayyorlanadigan shirinlik turi.Aksariyat oq uzum navlaridan tayyorlanadi.

Talqon -Qoʻqon joʻxori ,makkajoʻxori,bugʻdoy,oqshoq,qotgan non,meva qoqilaridan tayyorlanadi.

Chalqancha (29 - bet) –Orqasi bilan bor boʻyicha choʻzilib yotish.

Kigiz (29 - bet) –Uy jihozi kigizchilikda jundan bosib tayyorlanadigan qalin pishiq toʻshama palos.

Soʻri (28 - bet) – Tok oʻstirishga moʻljallangan tayanch moslama.

Angishvona (36- bet) –Fors.angusht-barmoq,vona-saqlovchi-ish tikishda barmoq ichiga kiyiladigan metal gʻilof.

Koʻkaltosh (36 - bet) – Qadimda turkiylarda boshqa onadan tugʻilib ammo bir onani emib ikki goʻdakni koʻkaldosh yani emikdosh.

Sholcha (37-bet)- Bu ot yungidan toʻqilgan qalin dagʻal mato manosini anglatadigan narsa.

Atlas (41-bet) – Oʻzbek ayollariga xos milliy libos matosi.

Supra (yoki supra) – (42-bet) – Xamir yoyish uchun non yasash uchun moʻljallagan odatda oshlangan teridan qilinadigan dasturxonsimon roʻrgʻor buyumi.

Paranji (44 – bet) – Koʻpchilik musulmon ayollarning yopinchi gʻi.Ayollar gavdasini boshdan oyoq yashirib turishga xizmat qiladi.

Nosqovoq ,nosdon,noskadi (44-bet) – Nos solinadigan idish.

Pilla (58 – bet) – koʻpgina hashoratlar gʻumbagining himoya qobigʻi.Pillani lichinka gʻumbakka aylanishdan oldin ajratgan ipakdan toʻqiydi.

Holvaytar (67 – bet) – shirinlik turi.

Telpak (86 – bet) –Erkaklarning issiq moʻynali bosh kiyimi.

Kulcha (93 – bet) – Tandirga yopilgan kichkina dumaloq non.

Tandir (94 – bet) –Non,somsa,kabob shu kabi taomlarni yopib pishirish uchun qurilgan maxsus oʻchoq.

Boʻyra (103 – bet) – Boʻyra qamishdan toʻqiladigan toʻshama maʼnosini anglatadi.

Mulla (110 – bet) – Madrasada taʼlim olgan shaxs .Koʻchma maʼnoda bilimdon,dono,savodli,ilmli odam.

Janaz (116 -bet)-ziqna, qurumsuq, hech kimga hech narsa bermaydigan, qizg‘anchiq inson.

Nosqovoq- (119-bet) nosdon, noskadi — nos solinadigan idish. Og‘zi tiqin bilan berkitiladigan bo‘g‘zi tor, quyi qismi keng shaklda bo‘ladi. Qovoq (suv-qovoq)ning po‘sti qattiq alohida navidan maxsus o‘stirib tayyorlanadi (ba‘zan qovoq tuga boshlagandan so‘ng istalgan shaklda qolip yasab, unga kiygizib qo‘yiladi va kerakli shaklga solinadi); bandi o‘rni (bosh qismi)dan teshiladi, ichi qirib tozalanadi, ichi 1—2 kun yog‘ga to‘ldirib qo‘yiladi, yog‘ qovoq po‘stiga shimilgach, rangi jigarrang, qizil tusga kiradi

Dutor (142-bet) so‘zi “ikki tor” ma’nosini anglatadi. Dutor Markaziy va Janubiy Osiyoning ikki torli chetib chalinadigan cholg‘u asbobi. Odatda, 1 metr dan 2 metrgacha uzunlikda, noksimon rezonatorli bo‘ladi. Taxminan XV asrda cho‘ponlar o‘rtasida paydo bo‘lgan. Dutor o‘zbek xalqining uzoq yillik ajralmas qismidir.

O‘choq (143-bet) — olov yoqish, uni saqlash va ovqat pishirish uchun mo‘ljallangan, ustiga qozon o‘rnatiladigan uch tomoni yopiq qurilma. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘. ilk paleolit davridan ma’lum. O‘. turli urf-odatlar, marosimlarni o‘tkazishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Atala (163-bet) — bug‘doy, arpa yoki jo‘xori unidan tayyorlanadigan taom. Atala parhez, shifobaxsh hisoblanadi. Kasal, holdan toygan, yangi ko‘zi yorigan ayollarga Atala ichi-riladi. Uni tayyorlash uchun qo‘y yog‘ini qozonda qizdirib, bug‘doy uni solinadi va qizarguncha qovuriladi. Oz-ozdan suv solinib uzluksiz aralashti-rib turiladi.

Xulosa

Realiyalarni o‘rganish va tahlil qilish til o‘rganish jarayonida ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Chunki, ma’lum bir til amalida qo‘llanadigan mamlakatda bu uning madaniyatini o‘rganish, xalq hayotiga chuqurroq kirish, til o‘rganish jarayonning sifatini ta’minlaydi. Realiyalar tilning lug‘at tarkibi, uning lingvistik va madaniy birliklarning mohiyatini yoritishda frazeologik qatlam muhim birliklardir. Mana shular asosida realiyani muayyan xalqning milliy, madaniy, unda ijtimoiy hayot, turmush tarzi, boy urf-odat va an’analar yorqin aks ettirilgan boshqa xalqlarning milliy madaniyatida esa ana shu xususiyatlarga ega takrorlanmaydigan, noyob birliklar sifatida belgilaymiz.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. A. E. Mamatov “Zamonaviy Lingvistika” 2019, Toshkent
2. Butayev Sh., Irisqulov A., Ing.-O‘zb, O‘zb-Ing. Lug‘at. www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Bakiyev F “Gid ekskursovodlik matnlarida ekvivalentsiz birliklar tarjimasi” maqolasi, “Til, madaniyat, tarjima va muloqot” Respublika ilmiy-ommaviy konferensiyasi materiallari- Samarqand, 2016-2017 noyabr.
4. Bakiyev F. “Til, madaniyat, tarjima va muloqot” Respublika ilmiy-ommaviy konferensiyasi materiallari- Samarqand, 2016-2017 noyabr.
5. E.Ochilov “Badiiy tarjima masalalari”-Toshkent, 2014.
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=0Ie2GvAAAAAJ&citation_for_view=0Ie2GvAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC.
7. O’tkir Hoshimovning " Nur borki soya bor " Toshkent 2017, 23-noyabr